



Umiddjon BOYXONOV

Tadqiqotchi, Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston

DSc, professor T.Ismoilov taqrizi asosida

JAMIYAT VA ICHKI ISHLAR ORGANLARI O'RTASIDAGI IJTIMOY SHARTNOMA FALSAFASI

Аннотация

Mazkur maqolada jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning falsafiy asoslari ijtimoiy shartnoma nazariyasi kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi legitimlik, ishonch va ijtimoiy mas'uliyat kategoriyalari ilmiy-falsafiy yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, ichki ishlar organlarining zamonaviy transformatsiyasi – jazolovchi apparatdan xizmat ko'rsatuvchi institutga aylanish jarayoni ijtimoiy shartnoma tamoyillari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Maqola fuqarolar xavfsizligi, huquqiy ong va davlat institutlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda ijtimoiy shartnoma konsepsiyasining metodologik ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy shartnoma, ichki ishlar organlari, jamiyat, davlat, legitimlik, huquqiy ong, fuqarolik jamiyati, xavfsizlik, ishonch, institutsional islohot, falsafa, ijtimoiy nazariya.

ФИЛОСОФИЯ СОЦИАЛЬНОГО КОНТРАКТА МЕЖДУ ОБЩЕСТВОМ И ОРГАНАМИ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация

В данной статье философские основы взаимоотношений между обществом и органами внутренних дел анализируются в контексте теории социального контракта. В исследовании на научно-философском уровне рассматриваются категории легитимности, доверия и социальной ответственности между государственной властью и гражданским обществом. Также анализируется процесс современной трансформации органов внутренних дел — от карательного аппарата к сервисному институту - в связи с принципами социального контракта. Статья раскрывает методологическое значение концепции социального контракта в укреплении общественной безопасности, правосознания и доверия к государственным институтам.

Ключевые слова: социальный контракт, органы внутренних дел, общество, государство, легитимность, правосознание, гражданское общество, безопасность, доверие, институциональные реформы, философия, социальная теория.

THE PHILOSOPHY OF THE SOCIAL CONTRACT BETWEEN SOCIETY AND INTERNAL AFFAIRS BODIES

Annotation

This article analyzes the philosophical foundations of the relationship between society and internal affairs bodies in the context of social contract theory. At a scientific and philosophical level, the study examines the categories of legitimacy, trust, and social responsibility between state power and civil society. It also analyzes the process of the modern transformation of internal affairs bodies—from a punitive apparatus to a service-oriented institution—in relation to the principles of the social contract. The article reveals the methodological significance of the social contract concept in strengthening public safety, legal awareness, and trust in state institutions.

Keywords: social contract, internal affairs bodies, society, state, legitimacy, legal consciousness, civil society, security, trust, institutional reforms, philosophy, social theory.

Kirish. Jamiyat va davlat institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar insoniyat sivilizatsiyasi tarixining eng murakkab va ko'p qatlamli ijtimoiy-falsafiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan. Ushbu munosabatlar doirasida ayniqsa davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari, xususan ichki ishlar organlari va jamiyat o'rtasidagi aloqalar ijtimoiy tartib, xavfsizlik, legitimlik va ishonch kategoriyalari orqali shakllanadi. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, demokratik transformatsiyalar hamda fuqarolik jamiyatining kuchayishi sharoitida mazkur munosabatlarni qayta ko'rib chiqish, ularning falsafiy asoslarini ijtimoiy shartnoma nazariyasi doirasida tahlil etish dolzarb ilmiy muammo sifatida yuzaga chiqmoqda[1]. Ijtimoiy shartnoma g'oyasi klassik falsafada davlat va jamiyat o'rtasidagi kelishuv sifatida talqin qilinib, u insonlarning tabiiy holatdan fuqarolik holatiga o'tishini asoslaydigan nazariy konstruktsiya hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, davlat hokimiyati fuqarolarning erkinliklarini cheklash orqali emas, balki ularni himoya qilish va umumiy manfaatni ta'minlash orqali legitimlikka ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ichki ishlar organlari davlatning

eng muhim institutsional tuzilmalaridan biri sifatida ijtimoiy shartnoma mexanizmining amaliy ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ushbu organlar jamiyatdagi tartib-intizomni saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash funksiyalarini bajaradi[2]. Bugungi kunda ichki ishlar organlarining faoliyati faqatgina repressiv yoki jazolovchi tizim sifatida emas, balki servis (xizmat ko'rsatish) institutiga aylanish jarayonida ko'rilmogda. Bu jarayon davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma mazmunining sifat jihatdan yangilanishini anglatadi. Ya'ni, zamonaviy davlat modeli fuqarolarga faqat talab qo'yuvchi emas, balki ularning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, xizmat ko'rsatuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida ichki ishlar organlarining institutsional transformatsiyasini falsafiy jihatdan asoslash zaruratini yuzaga keltiradi[3]. Jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma mohiyatini anglash uchun avvalo "ishonch" kategoriyasining falsafiy va sotsiologik mazmunini tahlil qilish lozim. Ishonch ijtimoiy tizimning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u davlat institutlarining

legitimgini belgilovchi mezon sifatida ham xizmat qiladi. Agar fuqarolar ichki ishlar organlariga ishonch bildirmasa, ijtimoiy tartib va huquqiy normalarning samaradorligi pasayadi, natijada davlat boshqaruvi tizimida inqiroz holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy shartnoma nafaqat huquqiy, balki axloqiy-falsafiy kategoriya sifatida ham o'rganilishi lozim[4]. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyatlarda xavfsizlik tushunchasi kengayib, faqat jinoyatchilikka qarshi kurash bilan cheklanib qolmay, balki inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik, axborot xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni ham o'z ichiga olmoqda. Bu holat ichki ishlar organlarining funksional doirasini kengaytiradi va ularni jamiyat bilan yanada yaqinroq hamkorlik qilishga majbur etadi. Natijada ijtimoiy shartnoma yangi mazmun kasb etadi: u endi faqat davlatning hukmronligi emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi ikki tomonlama mas'uliyat tizimi sifatida shakllanadi[5]. Shuningdek, ushbu mavzu O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar bilan ham bevosita bog'liqdir. Huquqni muhofaza qilish tizimini modernizatsiya qilish, ichki ishlar organlarini xalq bilan yaqinlashtirish, "xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyilini kuchaytirish kabi yo'nalishlar ijtimoiy shartnoma falsafasining amaliy ifodasidir. Bu jarayonlarda davlat institutlari o'z faoliyatini inson qadr-qimmatini himoya qilish, fuqarolik jamiyati bilan ochiq muloqot o'rnatish va shaffoflikni ta'minlash asosida qayta qurmoqda[6]. Ilmiy jihatdan qaraganda, jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi munosabatlarni ijtimoiy shartnoma paradigmasida tahlil qilish bir nechta metodologik yondashuvlarni talab etadi. Ular orasida tizimli yondashuv, institutsional tahlil, sotsiologik kuzatuv va komparativ metodlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar orqali davlat apparatining funksional tuzilishi, uning jamiyat bilan o'zaro aloqalari hamda legitimlik darajasi kompleks tarzda o'rganiladi[7]. Bundan tashqari, zamonaviy siyosiy falsafada davlat va jamiyat munosabatlariga oid qarashlar transformatsiyaga uchramoqda. Klassik liberalizm davlat minimal funksiyalarni bajaruvchi subyekt sifatida ko'rilgan bo'lsa, zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyalarida u faol ijtimoiy himoya va xizmat ko'rsatish instituti sifatida talqin qilinadi. Bu esa ichki ishlar organlarining ham yangi tipdagi boshqaruv modeliga moslashishini talab etadi[8]. Ijtimoiy shartnoma falsafasi doirasida ichki ishlar organlarining jamiyat bilan o'zaro munosabati faqat huquqiy majburiyatlar tizimi emas, balki axloqiy va madaniy muloqot shakli sifatida ham namoyon bo'ladi. Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ularni davlat boshqaruvida ishtirok etishga jalb qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ushbu shartnomaning muhim elementlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlari faoliyati ochiqlik va hisobdorlik prinsiplariga asoslanishi lozim. Xulosa qilib aytganda, jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma falsafasi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining nazariy va amaliy asoslarini yoritib beruvchi muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi. U nafaqat huquqiy institutlarning faoliyatini tushuntirishga, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch, legitimlik va hamkorlik mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Jamiyat va davlat institutlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma konsepsiyasini tahlil qilishda xorijiy siyosiy-falsafiy adabiyotlarda ikki asosiy yondashuv – klassik liberal va tanqidiy-fenomenologik qarashlar muhim o'rin egallaydi. Birinchi navbatda, Jon Lokkning ijtimoiy shartnoma nazariyasi davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni legitimlik va tabiiy huquqlar asosida izohlaydi; uning qarashlariga ko'ra, davlatning asosiy vazifasi fuqarolarning hayoti, erkinligi va mulkini himoya qilishdan iborat bo'lib, bu funksiyalar bajarilmagan taqdirda jamiyat davlatga nisbatan shartnomani qayta ko'rib chiqish huquqiga

ega bo'ladi. Ushbu yondashuv ichki ishlar organlarining faoliyatini ham bevosita legitimlik mezonlari bilan bog'laydi, ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qiluvchi institut sifatida ijtimoiy shartnomaning amaliy mexanizmi hisoblanadi[9]. Ikkinchi muhim nazariy yo'nalish sifatida Yurgen Xabermasning kommunikativ harakatlar nazariyasi va deliberativ demokratiya konsepsiyasi jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni kommunikativ ratsionallik va konsensus asosida shakllanadigan tizim sifatida talqin etadi. Xabermasga ko'ra, zamonaviy davlat institutlarining legitimligi faqat huquqiy majburlash orqali emas, balki fuqarolar bilan doimiy muloqot, shaffof qaror qabul qilish jarayonlari va jamoatchilik fikriga tayangan holda shakllanadi. Ushbu nuqtai nazardan ichki ishlar organlari ham faqat repressiv apparat emas, balki jamiyat bilan kommunikativ aloqada bo'ladigan, fuqarolarning ishonchi va roziligiga tayanuvchi institut sifatida qayta talqin qilinadi. Shu tariqa Lokkning klassik huquqiy legitimlik modeli Xabermasning kommunikativ legitimlik modeli bilan uyg'unlashib, ichki ishlar organlarining zamonaviy ijtimoiy shartnoma tizimidagi o'rnini yanada murakkab va ko'p qatlamli fenomen sifatida ochib beradi[10].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani ilmiy jihatdan tahlil qilishda ijtimoiy-falsafiy bilishning kompleks metodologik apparati qo'llanildi. Xususan, jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma munosabatlarni yoritishda tizimli yondashuv, institutsional tahlil, tarixiy-mantiqiy usul, qiyosiy-siyosiy tahlil, sotsiologik interpretatsiya hamda fenomenologik yondashuvlar o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilib, mazkur ijtimoiy hodisaning ko'p qatlamli mohiyatini ochib berishga xizmat qildi. Tizimli yondashuv orqali ichki ishlar organlari davlat boshqaruvi tizimining tarkibiy elementi sifatida jamiyat bilan uzviy aloqadorlikda ko'rib chiqildi, institutsional tahlil esa ushbu organlarning funksional transformatsiyasi va legitimlik asoslarini aniqlash imkonini berdi, tarixiy-mantiqiy metod esa ijtimoiy shartnoma g'oyasining klassik falsafadan zamonaviy boshqaruv paradigmasigacha bo'lgan evolyutsiyasini izchil yoritishga yordam berdi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida faqat huquqiy mexanizm emas, balki chuqur falsafiy-axloqiy asosga ega bo'lgan institutsional munosabatlar majmui sifatida shakllanadi; bu jarayonda fuqarolarning ishonchi, huquqiy ong darajasi va davlat institutlarining ochiqligi asosiy determinant omillar bo'lib, ichki ishlar organlarining repressiv modeldan servis va hamkorlik modeliga o'tishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda legitimlik darajasini oshirishga xizmat qilishi aniqlanadi.

Muxokama. Jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma falsafasini tahlil qilishda xorijiy siyosiy-falsafiy tafakkurda ikki yirik yondashuv – Tomas Gobbsning suverenitet va tartib markazli nazariyasi hamda Mishel Fuko tomonidan ishlab chiqilgan hokimiyat va nazorat (biopolitika) konsepsiyasi o'rtasidagi polemik qarashlar alohida ahamiyat kasb etadi. Gobbsning "Leviafan" asarida davlat tabiiy holatdagi "hamma hammaga qarshi urush" sharoitini bartaraf etish uchun mutlaq hokimiyatga ega bo'lishi zarur, degan g'oya ilgari suriladi. Ushbu nuqtai nazardan ichki ishlar organlari davlat suverenitetining asosiy ijrochi mexanizmi sifatida tartib-intizomni saqlash, zo'raonlikni jilovlash va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda markaziy o'rin egallaydi. Gobbs modelida ijtimoiy shartnoma bir tomonlama kuchli davlat foydasiga ishlovchi, fuqarolar esa xavfsizlik evaziga ayrim erkinliklardan voz kechuvchi subyekt sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv ichki ishlar organlarining kuchli

ierarxik tuzilma sifatida faoliyat yuritishini tabiiy va zaruriy holat deb hisoblaydi. Biroq Mishel Fuko ushbu an'anaviy yondashuvga tanqidiy munosabat bildiradi va hokimiyatni faqat davlat apparati orqali emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga singib ketgan murakkab tarmoq sifatida talqin etadi. Uning biopolitika konsepsiyasiga ko'ra, zamonaviy jamiyatlarda nazorat va tartib faqat jismoniy majburlash orqali emas, balki normativ diskurslar, ijtimoiy institutlar va "intizomiy mexanizmlar" orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan ichki ishlar organlari faqat tartibni saqlovchi kuch emas, balki fuqarolar xulq-atvorini shakllantiruvchi, ijtimoiy normalarni ishlab chiqaruvchi va boshqaruvchi institutsional tizim sifatida namoyon bo'ladi. Fuko Gobbsdan farqli ravishda, ijtimoiy shartnomani teng huquqli kelishuv emas, balki hokimiyatning ko'rinmas shakllari orqali shakllanadigan murakkab ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin etadi. Mazkur ikki yondashuv o'rtasidagi ilmiy bahs shuni ko'rsatadiki, Gobbs ichki ishlar organlarini davlat barqarorligining tayanch ustuni sifatida ko'rsa, Fuko ularni kengroq ijtimoiy nazorat tizimining bir bo'lagi sifatida tahlil qiladi. Natijada zamonaviy ijtimoiy shartnoma konsepsiyasida ushbu ikki qarashni integratsiyalash zarurati yuzaga keladi: bir tomondan, tartib va xavfsizlikni ta'minlovchi kuchli institutsional tizim zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu tizimning ochiqligi, hisobdorligi va fuqarolar bilan o'zaro muloqotga asoslangan bo'lishi demokratik legitimlikni ta'minlaydi. Shu tarzda ichki ishlar organlarining zamonaviy modeli repressiv va kommunikativ

funksiyalar o'rtasidagi muvozanat asosida shakllanishi lozimligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Xulosa. Jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma falsafasi zamonaviy davlat boshqaruv tizimining nazariy va amaliy asoslarini chuqur anglashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy shartnoma nafaqat davlat va fuqarolar o'rtasidagi huquqiy kelishuv, balki ularning o'zaro ishonch, mas'uliyat va legitimlikka asoslangan murakkab ijtimoiy-falsafiy tizimidir. Ichki ishlar organlari ushbu tizimda faqat huquqni muhofaza qiluvchi repressiv institut sifatida emas, balki jamiyat xavfsizligini ta'minlovchi, fuqarolar bilan hamkorlikda ishlovchi va xizmat ko'rsatuvchi modern institut sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy shartnomaning mazmunan yangilanishini anglatadi. Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlarining samaradorligi va legitimligi bevosita fuqarolarning ishonch darajasi, huquqiy madaniyati hamda institutsional ochiqlikka bog'liqdir. Shu bois, zamonaviy boshqaruvda shaffoflik, hisobdorlik va kommunikativ yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma falsafasi davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi barqaror muvozanatni ta'minlash, ijtimoiy tartibni mustahkamlash hamda demokratik boshqaruv tamoyillarini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдусаломов Ж. Ў. Ichki ishlar organlari tizimida tergov faoliyatining o'rni va ahamiyati //“Fan, innovatsiya va texnologiyalar rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlari” nomli online konferensiyasi. – 2025. – T. 1. – №. 12. – C. 18-20.
2. Azizov E. U., Sarabekov X. D. Ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlashning konstitutsiyaviy kafolatlari //Green Economy and Development. – T. 3. – №. 12. – C. 668331.
3. Jo'rayev M. Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – C. 57-57.
4. Jo'rayev M. Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – C. 60-60.
5. Narziyev S. et al. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining jamoat tartibini saqlash faoliyati, bu turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2026. – T. 4. – №. 41. – C. 345-350.
6. Eshimbetov G. Ichki ishlar organlarining kadrlar bilan ishlash faoliyatining ilmiy tahlili //Общество и инновации. – 2025. – T. 6. – №. 1. – C. 113-120.
7. Inomov A. Ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarning ichki ishlar xodimlari ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni //Journal of Tamaddun Nuri. – 2025. – T. 8. – №. 71. – C. 47-49.
8. Абдусаломов Ж. Ў. Ichki ishlar vazirligining huquqiy davlatni mustahkamlashdagi o'rni va ahamiyati //“Fan, innovatsiya va texnologiyalar rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlari” nomli online konferensiyasi. – 2025. – T. 1. – №. 12. – C. 14-17.
9. Sadullayev T. S. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy gvardiya bo'linmalari hamda ichki ishlar organlari o'zaro hamkorligining ayrim jihatlari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 287-298.
10. Ergashbaev S. (2025). O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.